

Mavzu: Gapning tuzilishiga ko'ra turlari (sodda gap)



Jasur o'qidi.

Jasur kitob o'qidi.



1. Gap bo'laklari necha turga bo'linadi?
2. Bosh bo'laklar qanday qismlarga bo'linadi?
3. Ikkinchi darajali bo'laklarning vazifasi nimadan iborat?



1-mashq. Rasm va so'zlar asosida sodda gaplar tuzing.



2-mashq. O'qing. Matnga sarlavha qo'ying.

Jasur 3-sinfda o'qiydi. Uning yozuv stoli ustida o'quv qurollari doim tartibli turadi. Jasur rangli qalam bilan chiroyli rasmlar chizadi. U rangli qog'ozdan turli narsalar ham yasaydi. Jasur portfelini ozoda va tartibli saqlaydi.⁴

- Gapning bosh bo'laklarini aniqlang.
- Ikkinchi darajali bo'laklarni so'roqlar yordamida aniqlang.
- Siz ham o'quv qurollaringizni tartibli va ozoda saqlaysizmi?





Sodda gap bir grammatik asosdan (*ega va kesimdan*) iborat bo'lgan gapdir. Sodda gap biror tugallangan fikrni bildiradi.

Masalan: Kuz keldi.



3-mashq. So'zlarni mazmunan bog'lab, sodda gaplar tuzing.



Muzqaymoq

Mehmonlar

Bayram

Quyosh

keldi.

boshlandi.

chiqdi.

eridi.



Sodda gap

Sodda yig'iq gap

Faqat ega va kesimdan iborat bo'lgan gap

[— =].

Masalan: Kuz keldi.

Sodda yoyiq gap

Ega, kesim va ikkinchi darajali bo'lakdan iborat gap

[~ — =].

Masalan: Oltin kuz keldi.



4-mashq. Sodda yig'iq gaplarga ikkinchi darajali bo'laklardan mosini qo'yib, sodda yoyiq gap tuzing.

1. Kuy taraldi. (*yoqimli, mazali, qiziqarli*)
 2. Yomg'ir yog'di. (*jala, kuchli, zavqli*)
 3. Dars bo'ldi. (*foydali, chiroyli, odobli*)
 4. Madina yozdi. (*kerakli, orasta, chiroyli*)
- Tuzgan gaplaringizni husnixat bilan ko'chiring.



5-mashq. Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplarni guruhlarga ajratib yozing.

1. Ona tovuq jo'jalarini ergashtirdi. 2. Mevalar pishdi. 3. Quyon sichqonning uyiga mehmonga keldi. 4. O'rdaklar palaponlarini suvda suzishga o'rgatdi. 5. Quyosh charaqladi. 6. Shabada esadi. 7. Yomg'ir havodagi changlarni tozalaydi. 8. Barglar sarg'aydi.



6-mashq. Berilgan egalarga mos kesimlarni topib, faqat bosh bo'laklardan iborat gaplar tuzing.

Ega: shamol, qo'ng'iroq, gul, kaklik, havo, yaproq, tabiat, kun.

Kesim: sayradi, qisqardi, esdi, sovidi, to'kildi, o'zgardi, ochildi, chalindi.



7-mashq. Ko'chiring. Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplarni aniqlang.

Oppog'oy¹ o'rmonda adashib qoldi. U yerda baland daraxtlar osmon bilan bo'ylashib turardi. Qushlar sayrardi. Mayin shamol esa barglarni shitirlatardi. U uzoq yurdi. Kichkina uycha oldiga kelib qoldi. Oppog'oy eshikni taqillatdi. Javob bo'lmadi. Oppog'oy ichkariga sekin kirdi...

- Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini tegishlicha belgilang.

